

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil
18–19-sentabr kunlarida “Adgeziya, yupqa plyonkalar va qishloq
xo‘jaligida qo‘llash bo‘yicha fanlararo istiqbollar” mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
HISOBOTI**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil 18–19-sentabr kunlari Tokio qishloq xo‘jaligi va texnologiya universiteti va Berlin texnika universitetlari bilan hamkorlikda tashkil etilishi rejalashtirilgan “Adgeziya, yupqa plyonkalar va qishloq xo‘jaligida qo‘llash bo‘yicha fanlararo istiqbollar” mavzusidagi xalqaro anjuman o‘tkazildi.



Bugungi kunda agrar soha bo‘yicha xorijiy ilg‘or ilm-fan yutuqlarini universitetning ilmiy faoliyatiga keng joriy etish, xususan adgeziya, yupqa plyonkalar va ularni qishloq xo‘jaligida qo‘llash uning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar, usullarni o‘rganish hamda amaliyotga keng joriy etish, ushbu soha bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada oshiradi.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ilg‘or kimyo, fizika, biologiya va materialshunoslik fanlarining integratsiyalashuvi asosida rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda adgeziya nazariyalari, yupqa plyonka texnologiyalari va innovatsion

qoplamalar qishloq xo'jaligida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Adgeziy xususiyatga ega polimerlar, nanoqoplamalar, suvdan himoyalovchi plyonkalar, bioaktiv materiallar ekinlarning hosildorligini oshirish, o'simliklarni himoya qilish va resurslarni tejashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

